

## NEMIS TILI DARSLARIDA O`YINLARDAN FOYDALANGAN HOLDA XATOLARNI TO`G`RILASH USULLARI

**Astonova Go`zalxon Rahmonaliyevna**

*Farg`ona davlat universiteti nemis tili o`qituvchisi*

**Axmadjonov Ulug`bek Xamidjon o`g`li**

*Farg`ona davlat universiteti, talaba*

**Annotatsiya:** *Maqola nemis tili darslarida xatolarni to`g`irlashda o`yinlardan foydalanish haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so`zlar:** *Nemis tili, o`yinlar, to`g`irlash, Grammatik xato, leksik xato.*

Dars jarayonida qo`llanadigan o`yinlarning maqsadi shundan iboratki, ular so`zlar va ularning ma`nolarini o`rganish va ularni turli kommunikativ vaziyatlarda qo`llash, Grammatik strukturani tushunish hamda uni tanlangan iboralar bilan birgalikda faol qo`llay olish uchun imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari o`yinlardan o`quvchilar yo`l qo`ygan xatolarni to`g`rilashning o`ziga xos usulisi fatida ham foydalanish mumkin. Masalan buning uchun quyidagicha o`yindan foydalanish mumkin:

O`qituvchi topshiriq varag`iga taxminan 15 ta gap yozadi. Bulardan 5 tasi to`g`ri, qolgan 10 tasi esa xato bo`ladi (iloji boricha o`quvchilarning o`zlari yo`l qo`yadigan original xatolar bo`lishi maqsadga muvofiq). So`ngra o`qituvchi o`quvchilardan o`ziga bir yordamchi tanlab oladi. Bu o`quvchi bilan birgalikda “ Kim oshdi ” savdosini o`tkazishlarini e`lon qiladi. Albatta o`yinning qoidalarini tushuntirib o`tadi, shu bilan bir qatorda kim oshdi savdosida qo`llanadigan ba`zi qiyin tushunchalarga alohida izoh berib o`tadi. ( Masalan, buyuraman, birinchidan/ikkinchidan/uchinchidan singari ). Har 2 yoki 3 o`quvchi topshiriq varag`ini olib, gaplarga qisqa muddat ko`z yugurtiradilar (masalan, 1 daqiqa). Keyin esa “ Kim oshdi ” savdosi boshlanadi. Har bir guruh yoki juftlikka gaplarni sotib olish uchun 5000 funt beriladi. Har bir gapga eng kamida 200 funt taklif etish majburiydir. G`olib kim bo`lishini esa, to`g`ri gaplar uchun eng yuqori, ko`p pul taklif qilish va pullarni to`g`ri sarflash darajasi hal qiladi. Bu narsa pullarni aql bilan sarflash kerak ekanligini, xato gaplar uchun esa eng past miqdordagi pulni taklif qilish lozim ekanligini bildiradi. O`qituvchi birinchi gapni o`qib eshittiradi (agar gap aslida xato bo`lsa, o`qituvchi iloji boricha uni to`g`ridek o`qib berishga harakat qilishi kerak), agar o`quvchilar gapni to`g`ri deb topsalar, ulardan bu gap uchun qancha pul taklif qilishlari so`raladi:

“Shunday qilib honimlar va janoblar. Bugungi kim oshdi savdosini boshlaymiz. Siz hamma shartlar bilan tanishsiz. Birinchi gapni o`qish bilan savdomizni boshlaymiz. Diqqat birinchi gap: ***Ich hattet Pizza gegessen.*** So`ngra o`qituvchi ishtirokchilardan so`raydi: “ Kim bu so`z uchun 200 yevro taklif qiladi? ”. O`yinshutariqadavom etadi.

Versteigerung – narxoshirish	–	Bezahlt – to`landi	Rest – qoldiq
1. Gestern waren ich im Kino.(falsch		800	4.200

/noto`g`ri)		
2. Meine Tasche ist groß. (richtig/to`g`ri)	1.200	3.000
3. Was hast du gestern gemacht?		
4. ....		

Agar hech kim masalan 800 yevrodan ortiq pulni taklif qilishni istamasa, shunda gap o`sha guruh yoki juftlikka sotiladi. Ishtirokchilarga gap to`gri yoki noto`griligi o`qib eshittiriladi: gap xato. To`gri javob esa quyidagicha: **“Ich hatte Pizza gegessen”**. Bu yerda gap Grammatik jihatdan tahlil qilinmasdan, keying gaplarga navbat beriladi. 4- gap, 7- gap va hakoza. Shunday qilib hamma gaplar sotib tugatiladi. Bu vaziyatda ishtirokchilar birin- ketin o`yinni tarketadilar. Bu juda ham muhim, chunki bu o`yinining jozibadorligiga hissa qo`shadi, ya`ni xatoga yo`l qo`yganlarning, xato gapni to`gri deb ko`p pul taklif qilganlarning“ Kim oshdi” savdosidagi ishtiroklari qolganlarga qaraganda kamroq, qisqa bo`ladi.

O`yin oxirida esa“ Kim oshdi” savdosining g`olibi aniqlanadi. Kimdir – o`qituvchi yoki yaxshi bilimga ega bo`lgan ishtirokchi, sotib olayotgan o`quvchi va narxni belgila bboradi. Xuddi “Kim oshdi” savdosining ishtirokchilariga “minnatdorchilik” bildirilganday, har bir gapga Grammatik izoh beradi. Bu izohlarga tezlik bilan yondashish kerak.

Dars jarayonida qo`llanadigan o`yinlar quyidagi ijobiy tomonlarga ega:

- Turli til o`rganuvchilar turlarini, ularning talablarini yaxshiroq ko`ra olish;
- Til o`rganuvchilar o`yin tempini o`zlari belgilashlari mumkin, bu bilan ular o`rganish uchun sarflayotgan vaqtlaridan tejaydilar hamda maqsadga asoslanib o`qishni o`rganadilar. Bundan tashqari uni amalda sinab ko`radilar;

- O`yin “Biz- hissi” ni rivojlantiradi, o`quvchilarning qiziqishini va mavzuga nisbatan kreativ yondashishlarini rivojlantiradi hamda sinfdagi muhitni yaxshilashga xizmat qiladi;

O`yinni olib boorish uchun yana bir necha ko`rsatmalar mavjud:

O`zaro hamkorlikda ishlash, bu ishtirok chilarning haqiqatan ham o`zaro birgalikda ishlashlari kerakligini bildaradi va o`zlari birga ishlashni xoxlash yoki xoxlamasliklariga qarab bu holda ularga ishonib topshirilmaydi. Bu har bir guruhga faqat birgina topshiriq varaqasi beriladi deganidir. Bu ko`rsatma hamma hamkorlikdagi ishlar uchun ham umumiy hisoblanadi. Ikkinchi varaq esa, ish natijasini mustahkamlash uchun darsning oxirida tarqatilishi mumkin. Agar har bir ishtirokchida bittadan topshiriq varaqasi bo`lsa, haqiqiy ko`zlangan maqsadga erishish imkoniyati juda ham kam bo`ladi. O`yinli faoliyatlar, ayniqsa bu jarayon, imkoni boricha bir “g`olib” bilan yakunlanadi. Shuning uchun har bir ishtirokchiga bir-biridan murakkab yoki yengil topshiriq yoki kartochka bermaslik kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Жураева. М.Т. Астонова Г. Р., РАЗВИТИЕ ПИСЬМЕННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НА УРОКАХ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА, ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ, 2019, Том 1, Номер 12 (145), Страницы 99-102.

2. Гўзалхон Рахмоналиевна Астонова, Германия бошланғич ва ўрта таълимнинг ўзига хос жиҳатлари, Евразийский журнал академических исследований, Евразийский журнал академических исследований, 2021/12, Том 1, Номер 9, Страницы 95-98.

3. Astonova Guzalkhon Rakhmonalievna, IMPORTANCE OF WRITING SKILLS IN EARLY FOREIGN LANGUAGE LESSONS, INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL, 2021/5/19, Том 2, Номер 5, Страницы 607-610.

4. Гўзалхон Рахмоналиевна Астонова, Бошланғич синфларда олмон тилининг ўқитишнинг самарали усуллари, Scientific Journal, 2021/4, Том 1, Номер 6, Страницы 1304-1309.

5. Go'zalkhon Rakhmonalievna Astonova, Use of group work at the lessons of the German language, Проблемы современной науки и образования, 2019, Номер 12-2, Страницы 158-160.

6. Astonova Guzalkhon Rakhmonalievna, To Provide Information about the Formation Patterns, Terminological Research, and the Processes that Occurred in the Uzbek Terminology, American Journal of Social and Humanitarian Research, 2022/11/21, Том 3, Номер 11, Страницы 175-181.

7. Гўзалхон Рахмоналиевна Астонова, Шахс Интеллектуал Маданиятининг Гносеологик Ва Ижтимоий Тараққиётга Оид Жиҳатлари, Gospodarka i Innowacje, 2022/6/28, Том 24, Страницы 968-974.

8. Гузалхон Рахмоналиевна Астонова, Стихи и песни как мотивационный фактор в изучении немецкого языка, Проблемы современной науки и образования, 2020, Номер 6-1 (151), Страницы 88-90.

9. Astonova Go'zalkhon Rakhmonalievna, System of Vocation and higher Education in Germany, JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 2021/12, Том 7, Номер 1,2 Страницы 316-318.

10. Astonova Guzalkhon Rakhmonalievna, Effective Methods of Working with Vocabulary in Foreign Language, Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2023/3/9, Том 2, Номер 3, Страницы 1-4.